

## XOTIN- QIZLARGAQARATILGANIJTIMOIYXIZMATLAR

**SHerovMa'rufBoltayevich**

*Ilmiy rahbarim ismi*

**Hikmatullayeva Lola**

*SamDU psixologiya va ijtimoiy-siyosiy  
fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mamlakatimiz fuqarolarining katta qismini yoshlar va xotin-qizlar tashkil etadi. Aholining 49,7 foizi hamda mehnat resurslarining 45 foizi ayollar hissasiga to'g'ri kelmoqda.*

**Kalit so'zlar;** *ijtimoiy himoyalash, himoyaga muhtoj, qanchasi ishsiz, mahalla, tuman, shahar va viloyat.*

Demak, yurtimizdagi ijtimoiy masalalarning aksariyati ular hayoti bilan chambarchas bog'liq. Amaliyotda olib qaraydigan bo'lsak, yurtimizda ishga joylashishga muhtoj yoshlar va ayollarning o'rta hisobda 7 foizi oliy ma'lumotli, 45,9 foizi o'rta maxsus va 47,1 foizi o'rta ma'lumotlilarni tashkil etadi. So'nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni kasb-hunarga o'qitib, bandligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada mahalla darajasigacha yuritiladigan vertikal tizim yaratildi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha har bir mahallada alohida rais o'rinbosari, tumanda mahalla va oila bo'limi boshlig'i o'rinbosari hamda 2 nafar mutaxassisi, viloyatda esa 8 nafargacha shtat birligi berildi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktyabrda jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi tashabbusi bilan xotin-qizlar masalalari bo'yicha yangi ish tizimi — har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida “Ayollar daftari” joriy etildi.

“Ayollar daftari” har bir xotin-qiz bilan manzilli ishlash, mutlaqo yangicha va tizimli vazifalarga asoslangan o'ziga xos mexanizm sifatida yo'lga qo'yildi. Avvallari biz ayollarni ish bilan ta'minlash haqida gapirardik, ammo qancha ayol ijtimoiy himoyaga muhtoj, qanchasi ishsiz, qanchasi kasb-hunar o'rganish istagida, degan savollarga to'liq javobimiz yo'q edi. “Ayollar

daftari”ni shakllantirish jarayonida tegishli vazirlik-idoralar mutasaddilaridan iborat ishchi guruhlar har bir tuman (shahar), mahalla, xonadon bo'yicha xotin-qizlar muammolarini o'rganib, tegishliligi bo'yicha yo'nalishlarga ajratgan holda, amaliy yordamlar ko'rsatyapti. Joriy yilning o'zida 253,2 ming ayolning ijtimoiy himoyaga muhtoj, shundan 131,2 ming nafari ish bilan band etish va 36,4 ming nafari kasb-hunarga o'qitishga, 69,9 ming nafari kredit olish, 15,7 ming nafarining kasanachilik va tomorqada band etishga ehtiyoji borligi aniqlanib, “Ayollar daftari”ga kiritildi. Mehnat bozoridagi 8 ta eng muhim yo'nalish belgilab olinib, bugungi kunga qadar ularning 77,8 ming nafariga bandlik xizmatlari ko'rsatildi. Shulardan 21,2 ming ayol ishga joylashtirilib, 16,2 ming nafari jamoat

ishlariga jalb qilingan bo'lsa, qolganlari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Ular orasida 4,8 ming ayolga ishsizlik nafaqasi tayinlandi va to'lab berildi. Bu tizimdan ko'zlangan maqsad xotin-qizlarga faqat moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish emas, balki ularni ishga joylashtirish orqali doimiy daromad manbai bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishdan iborat. Ayni paytda respublika bo'yicha jami 432,7 ming nafar xotin-qiz "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, mehnat organlari orqali ulardan 167,6 ming nafarining bandligiga ko'maklashish vazifasi belgilangan. Jarayonda xotinqizlarning talab-istaklari asosida 50 ming nafarini korxonalaridagi mavjud bo'sh (vakant) hamda zaxiralangan ish joylariga joylashtirish, 45,4 ming nafarini haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, 8,4 ming ayolga subsidiyalar ajratish orqali o'zini-o'zi band qilishi hamda 36,4 ming vakillarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nimaklariga o'qitish orqali bandligiga ko'maklashish ishlari olib boriladi. Yana bir ahamiyatli jihati, yurtimizda xotin-qizlarning kasb ko'nikmalarini mustahkamlash, hayotda munosib o'rin egallashi, ularni doimiy ish bilan band qilish maqsadida joylarda sendvich va boshqa arzon hamda qulay materiallardan tezkorlik bilan tikuvchilik korxonalarini qurish ham tadbirkorlar orasida ommalashib bormoqda. Shu kunga qadar 200 ga yaqin ana shunday korxonalar tashkil etilib, ularga 4 100 nafardan ortiq xotin-qiz ishga joylashdi. Shuningdek, 75 ta tumanda 111 ta tikuv-trikotaj ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, ularda jami 35 ming nafar yosh xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug'vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko'p bo'lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda. Ularning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi. 2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta'limga qabul qilindi. Natijada, o'tgan yili oliy o'quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab, "Ayollar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko'mak berilgan. Hozirgi kunda "Ayollar daftari" da 630 mingdan ziyod xotin-qiz ro'yxatda turibdi, ulardan 200 ming nafari ishsiz. Ayollar o'rtasida jinoyatchilik, oilada zo'ravonlik va tazyiq holatlari, afsuski, hali ham bor.

Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida xotin qizlarga qaratilgan qarorlar, ularning ijrosini tizimli tarzda, har bir mahalla kesimida amalga oshirish uchun Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida Prezident farmoni qabul

qilindi. Qo'mita raisi ayni paytda Bosh vazir o'rinbosari va Senat a'zosi sifatida faoliyat yuritadi. Qo'mitaning viloyat, tuman va shahar boshqarmalari rahbarlari esa, hokim o'rinbosari hisoblanadi. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda "Ayollar daftari" jamg'armasi mazkur qo'mita tomonidan boshqariladi. Yurtimizdagi 9 ming 309 ta mahalla raisining xotin-qizlar va oila bo'yicha o'rinbosari lavozimlari ham qo'mita tizimiga o'tkaziladi hamda har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilinadi.

– Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo'ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o'qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo'yicha mening stolimda adolatli raqam bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari. 2022-yil 1 -sentabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda byudjetdan 200 milliard so'm, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so'm yo'naltirilishi qayd etildi.

Ayollarning uy-joy sharoitini yaxshilash masalasiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz shunday dedi:– Bir vaqtlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon yo'q edi, bunga qonuniy asos, mablag' yo'q edi. Ipoteka kreditlari bo'yicha ham ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirilishi belgilandi. Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashiga to'xtaladigan bo'lsak, jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o'qitish uchun davlatxususiy sherikchilik asosida to'qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to'qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi. Yangi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, kelgusi besh yilda 8 trillion so'm mablag' ajratildi.

Yana bir yangilik: joriy o'quv yilidan boshlab, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanadi. Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyatini oshirish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan.

Prezidentimiz bu borada obro'-e'tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat "Oqila ayollar" harakatini tashkil qilish taklifini ilgari surgan.

– Bu harakat "mahallaning vijdoni"ga aylanishi kerak. Chunki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi, – deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, jamiyatning asosiy bo'g'ini-oila hisoblanadi. Farzandlarimizni komil inson ruhida tarbiyalash ko'proq onalarimiz zimmasiga tushadi albatta. 2022-yil 1-maydan mahalladagi xotin-qizlar faolining oylik ish haqi miqdori u birlashtirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilanadi: xonadonlar soni 500 tagacha bo'lgan mahallada – mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravari

(2 million 877 ming so‘m) miqdorida; xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo‘lgan mahallada – mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4 baravari (3 million 288 ming so‘m) miqdorida; xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo‘lgan mahallada – mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 4,5 baravari (3 million 699 ming so‘m) miqdorida.

2022-yil 1-avgustgacha mahallalardagi xotin-qizlar faollari “ayollar daftari”ni yuritish, masofadan turib hisobotlar taqdim etish hamda videokonferensaloqa shaklida yig‘ilishlarda ishtirok etish imkonini beruvchi planshetlar bilan ta‘minlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1 <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/11547>

2 <https://yuz.uz/uz/news/mehnat-bozorida-xotin-qizlarning-orni->